



IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA XALQARO EKOLOGIK HUQUQNING MOHIYATI

¹Diyorbek Sobirov Abdulxamid o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik universiteti,
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti talabasi

E-mail: sobirovyuristbek@gmail.com

Tel: +998998171618,

²Xasanov Hakimjon Ne'matjon o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik universiteti,
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti talabasi

E-mail: xasanovhakimjon82@gmail.com

Tel: +998999646042.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7364287>

ARTICLE INFO

Received: 15th November 2022

Accepted: 24th November 2022

Online: 26th November 2022

KEY WORDS

Iqlim o'zgarishlari, konvensiya, ekotizm, ekologik muammolar, atmosfera, issiqxona gazlari, harorat.

ABSTRACT

So'nggi yillarda dunyo bo'yicha deyarli barcha mamlakatlarda iqlim o'zgarishiga sabab bo'ladigan sohalar hamda amalga oshirilayotgan salbiy harakatlar, iqlimning salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada, iqlim o'zgarishlari va uning rivojlanish tarixi hamda ekologik jarayonlarga ta'siri natijasida yuzaga kelgan hamda keladigan oqibatlari, shuningdek, ushbu holatni bartaraf etishda amalga oshirilayotgan va oshirilishi kerak bo'lgan ishlar hamda ushbu jarayonlarda o'zining o'rniga ega bo'lgan xalqaro ekologik huquqning mohiyati haqidagi ma'lumotlar va ushbu iqlim o'zgarishi holatlarini yumshatishga qaratilgan xalqaro hujjatlar hamda ushbu jarayon uchun qabul qilingan hamda shu kungacha amalda qo'llanib kelgan ahdlashuvchi davlatlar uchun tavsiyaviy hamda majburiy xarakterdagi majburiyatlar yuklovchi konvensiyalar o'rin olgan. Shuningdek, ushbu muammoli masalalarni hal etishda amaliyotda yuzaga keladigan kamchiliklar va ularni qay tariqa hal etish kerakligi borasidagi muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va tavsiyalar o'rin egallagan.

Barchamizga ma'lumki, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuzatish, tadqiq etish uzoq tarixiy jarayonga egadir. Ekologiya atamasi 1866-yilda fanga kirib kelgan va ekologiya fani biologiya fani

tarkibidan ajralib chiqdi va o'z yo'nalishlari bo'yicha rivojlanib bormoqda. Shuningdek, insonning tabiat ilmiga bo'lgan qiziqishi, tabiiy resurslarning holatini kuzatish, o'rganish, tabiat



boyliklarini asrab-avaylash, muhofaza qilish bilan bog'liq ta'limotlarni jamiyat rivojlanish tarixining barcha bosqichlarida kuzatishimiz mumkin. Insonning tabiat bilan bog'liqligi nafaqat maxsus tadqiqotlarda balki jamiyat a'zolarining turmush tarzi, diniy va ijtimoiy urf-odatlarini bilan bog'lanib ketganligini kuzatishimiz mumkin. Jamiyatning tabiatga bo'ladigan o'zaro ta'sir doirasi va darajasini inson ongi, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari takomillashuvi bilan bog'lab kuzatishimiz mumkin. Yangi mehnat qurollari, fan-texnika kashfiyotlari o'z navbatida tabiiy resurslardan ko'proq foydalanish, turli ehtiyojlarni qondirishni ta'minlaydi va o'z navbatida tabiiy resurslar holatiga bo'ladigan salbiy ta'sirlar darajasini oshirib bordi. Tabiatga bo'ladigan zararli va xavfli ta'sirlarni kamaytirish, ularning oldini olish, tabiat boyliklarining holatini yaxshilash bilan bog'liq izlanish, tadqiqot, ta'limotlar rivojlanib boraveradi. Ushbu jarayon o'z navbatida tabiat-jamiyat tizimidagi munosabatlarni takomillashtiradi, ekologik bilimlarning rivojlanishiga olib keladi. Tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish, ularning holatini tadqiq etishda xorijiy olimlar qatorida bizning yurtimiz allomalari AlXorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurazzoq Samarkandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Balxiy, Maxsud ibn Vali va boshqalar ulkan hissa qo'shganlar. Shuni ta'kidlashni kerakki, XIX asrgacha tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashmagan, salbiy ta'sirlar doirasi kengaymaganligi, bir so'z bilan aytganda tabiiy-ijtimoiy zaruriyatning mavjud emasligi tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq ta'limotlar alohida, maxsus olib borilmagan. XIX

asrdan boshlab ilm-fanda yangi kashfiyotlar, yangi mehnat qurollari, texnika vositalari paydo bo'lishi tabiat-jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tizimiga keskin burilish yasadi. Tabiatga bo'lgan jamiyatning ta'sirlari, ya'ni antropogen ta'sirlar ortib boraverdi. Bu esa o'z navbatida ekologiya fanining rivojlanishiga olib keldi. Ekologiya huquqi - tabiat bilan jamiyat o'rtasida o'zaro ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni o'rganuvchi fan va huquq tizimining alohida sohasi sifatida o'z rivojlanish tarixiga egadir. Biz tabiat-jamiyat tizimidagi qadimiy-tarixiy jarayonni o'rganishni oson bo'lishi maqsadida shartli ravishda uch bosqichga bo'lamiz: 1. Sotsialistik tuzumgacha bo'lgan boy tarixiy davr (1017-1924-yillargacha bo'lgan bosqich); 2. Sotsialistik tuzum (1924-1990-yilgacha)" 3. Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha).[1] Birinchi boy tarixiy bosqich eramizdan avvalgi ming yilliklardan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarining turli-tumanligi, o'ziga xos xususiyatlarini kuzatishimiz mumkin. Jamiyatning tabiat bilan bog'liq munosabatini tartibga solish odamlar qabila-qabila bo'lib birlashib, o'z hududlarida yer, o'rmon, hayvonot dunyosi va resurslaridan foydalanish qoidalari joriy qilinib kelingan. Inson ongining rivojlanishi yangi mehnat qurollarining vujudga kelishi natijasida tabiat boyliklaridan foydalanish miqdori va o'z navbatida ta'sir ko'rsatish darajasi ortib bordi. Yurtimizda davlatchilik shakllana boshlashi, rivojlanishi bilan jamiyatdagi huquqiy munosabatlar takomillasha bordi. Ushbu huquqiy munosabatlar tizimida yer, suv, o'rmon va hayvonot dunyosidan



foydalanishning qoidalari ham takomillashib bordi. Tarixiy merosimiz xisoblangan “Avesto” va boshqa diniy urf-odatlarda ham tabiatdan foydalanish bilan bog'liq qoidalarni uchratishimiz mumkin. Albatta, ushbu qoidalar mahsus qoida sifatida shakllanmagan bo'lsada jamiyat a'zolarining tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solib turishga xizmat qilgan. Tabiatdan foydalanish qoidalari jamiyat a'zolarining diniy qoidalari, urf-odatlariga aholining turmush tarziga aylana borib, insonning tabiatdan foydalanish, uni avaylab asrash bilan bog'liq majburiyatlari, javobgarlik choralari belgilanib boriladi. Ayniqsa, eramizning o'rta asrlarida davlatchilikning rivojlanishi va taraqqiy etishida tabiiy resurslarning ahamiyati cheksiz hisoblanib, yersuvdan foydalanish qoida-talablari rivojlana bordi. Ayniqsa, musulmon huquqining manbalari va boshqa tarixiy-huquqiy ahamiyatdagi merosimizda yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish talablari, ularni muhofaza qilish majburiyatlari, javobgarlik choralari kabi qoidalar belgilangan bo'lib, ushbu sohada munosabatlarni tartibga solishga katta ahamiyat berilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, XX asrning 20-yillarigacha bosib o'tilgan boy tarixiy evolyutsion jarayonda tabiatdan foydalanish, uni asrab-avaylash bilan bog'liq umumijburiy ahamiyatga ega bo'lgan qoida-talablar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, birinchidan, ushbu qoida-talablar alohida maxsus tizimga ega bo'lmay, mulk bilan bog'liq qoidalar tizimida rivojlangan, ikkinchidan, tabiat boyliklaridan foydalanish va ularni asrab-avaylash qoida-talablari aholining madaniyati va turmush tarziga singib ketganligi o'z navbatida huquqiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat

qilgan. XX asrning 20-yillaridan boshlab, zaminimizda sotsialistik tuzumning o'rnatilishi, O'zbekiston SSR ning ittifoqdosh respublikalar tarkibida agrar davlat sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish yangi huquqiy qoida-talablarining joriy etilishi bilan bog'liqdir. 1917-yilda Yer haqida Dekretning imzolanishi mavjud tuzum uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yerga nisbatan xususiy mulk shaklining bekor qilinishi, pomeshiklar, yer egalarning yerlari milliyashtirilishi, ya'ni davlat tasarrufiga o'tishi, yerlarni ishchi, dehqonlarga berilishi kabi tamoyillar belgilangan. Ushbu dekretga asoslanib, yer kodeksi, yer osti boyliklari haqida, o'rmon va suv resurslari va tabiiy obyektlardan foydalanish haqidagi nizomlar qabul qilindi. 1939-yilda O'zbekiston SSR ning yer-suv kodeksi qabul qilinishi yer va suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish munosabatlarini tartibga soluvchi birinchi kodifikatsiyalashgan hujjat hisoblanadi. 1941-yilda O'zbekiston SSRning “Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish to'g'risida” gi qonunning qabul qilinishi esa o'z navbatida qishloq xo'jaligida yer va suvdan foydalanish va ularni muhofaza qilishning rivojlanishini ko'rsatadi. 1957-1963-yillarda barcha ittifoqdosh respublikalarda, shu jumladan, O'zbekiston SSR da ham “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida” gi qonuni qabul qilinib, birinchidan, tabiatni muhofaza qilishning tamoyillari, asosiy qoida-talablari mustahkamlanadi, ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va o'rganishda alohida urg'u beriladi. Xalq xo'jalik maqsadlarida tabiiy resurslardan keng foydalanish o'z navbatida tabiiy resurslar holatining



yomonlashishiga, tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati paydo bo'la boshlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 1963-yilgacha yer, yer osti boyliklari, o'rmon, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy-nazariy asoslari "Yer huquqi" fani dasturida belgilangan edi, ya'ni bir so'z bilan aytganda, tabiatni muhofaza qilishning huquqiy holati "Yer huquqi" fani tizimida o'rganilib kelindi. Bu holat tabiatni huquqiy muhofaza qilish nazariy -amaliy jihatdan keng miqyosda o'rganishga imkon bermas edi. 1963-yildan Ittifoq miqyosida "Tabiatni huquqiy muhofaza qilish" o'quv dasturi tasdiqlanib, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslanib beriladi. Fan-texnikaning tobora rivojlanib borishi, xalq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, qishloq xo'jaligida paxta "yakkahokimligi" ning ilgari surilishi, mexanizatsiya va melioratsiya tizimlarining rivojlanishi o'z navbatida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini talab qila boshladi. 1986-yilda "Yer huquqi" fani va "Tabiatni huquqiy muhofaza qilish" maxsus kursi o'rniga "Tabiiy resurslar huquqi va atrof-muhitni muhofaza qilish huquqi" o'quv dasturi tasdiqlanib, barcha "ittifoqdosh" respublikalarda shu jumladan, bizning respublikamiz oliy yuridik o'quv yurtlarida nazariy-huquqiy asoslari o'rganila boshlandi. 1986-yillarda "sovet" lar davlatining ko'plab mintaqalarida, ayniqsa O'zbekistonda 30-40 yil davomida olib borilgan noto'g'ri ekologik siyosat oqibatida ekologik muammo keskinlashib, Orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasida, Navoyi, Buxoro, Sariosiyo, Bekobod,

Chirchiq kabi viloyat va shaharlarda yerlarning sho'rlanish darajasi, suvlarning ifloslanishi, almosfera havosi holatining yomonlashishi, aholining hayoti va sog'ligi darajasinmg pasayishi, turli kasalliklarning ko'payishi kabi salbiy holatlar paydo bo'lgan edi. Mana shunday sharoitda "Tabiat-jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlarni birinchi navbatda tabiatning ustuvorligini tan olish tamoyilining joriy etilishi asosida tabiiy resurslardan foydalanish huquqiy asoslarini o'rganishni taqozo etadi. 1987-1989-yillarda yurist-ekolog olimlar tomonidan "Ekologiya huquqi" o'quv dasturini joriy etish va ekologiyaning huquqiy asoslarini yaratish g'oyasi ilgari surilib keldi va ba'zi respublikalarda joriy etila boshladi. O'zbekiston Respublikasida "Tabiat-jamiyat" tizimidagi o'zaro munosabatlarining ilmiy jihatdan asoslangan huquqiy asoslarini yaratish 1991 -yil respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshira boshlandi. 1991-yilda Toshkent Davlat yuridik institutining Ilmiy Kengashi qarori bilan "Ekologiya huquqi" fanining o'quv dasturi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Yer Kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologiya ekspertizasi to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari va ushbu sohadagi qonunchilik hujjatlari O'zbekiston Respublikasi "Ekologiya



huquqi” fanining huquqiy asoslarini mustahkamladi

Yuqorida biz ekologiya huquqining rivojlanish tarixi hamda ekologik jarayonlarga ta’siri haqida ma’lumotlarga ega bo’ldik endi esa, iqlim o’zgarishlari nima, u qanday sodir bo’ladi, uning sodir bo’lishiga sabablar nimalardan iborat ekanligi haqidagi fikrlarga biroz to’xtalsak. Iqlim o’zgarishlari aslida bir yoki ikki yil ichida vujudga keladigan hodisa emas, ushbu hodisa yillar davomida shakllanadi, to’planadi va o’zining yuqori cho’qqisiga chiqqanda esa, jiddiy ravishda harorat o’zining stabililigini yo’qotadi hamda olayotgan nafasimiz, ya’ni kislorodning tarkibi ham sezilarli darajada o’zgaradi va oqibatda inson salomatligiga jiddiy xavf yuzaga keladi. Aslini olgan, ushbu yuzaga keladigan xavfni o’z salomatligiga jiddiy zarar yetadigan o’sha insoniyat yuzaga keltiradi, ya’ni shu iqlimning, tabiatning, hayvonot olamining jiddiy o’zgarishining bosh va asosiy sababi ham insoniyat hisoblanadi. To’g’ri, ushbu iqlim o’zgarishlarini faqatgina insoniyat bilan bog’lab qo’yish kerak emas, albatta. Bunga turli xil o’rmon yong’inlari yoki bo’lmasa, suv toshqinlari hamda vulqonlar otilishi va yana tabiatda sodir bo’ladigan boshqa tabiiy hodisalar ham sabab bo’ladi. Hozirgi kunda global bo’lib turgan Yer yuzidagi haroratning ko’tarilishining asosiy sabablaridan biri, Yer atmosferasidagi issiqxona gazlarining miqdori keskin o’sishi oqibati hisoblanadi. Bu gazlar suv bug’i, karbonat angidrid, metan, va azot oksididir. Karbonat angidrid bu – insoniyatning ishlab chiqarish faoliyati natijasida chiqadigan gaz bo’lib, atmosferada uning konsentratsiyasining qisqa vaqt ichida ortishi sanoat davrining boshidan boshlab kuzatib kelinmoqda.

Ko’pchilik olimlarning nazariyalariga qaraydigan bo’lsak, sayyorada global isishning rivojlanishdagi hal qiluvchi ahamiyati aynan ushbu karbonat angidrid gazi oqibatida sodir bo’ladi. Iqlim o’zgarishi bir necha o’n yillar yoki undan ko’p vaqt davomida o’rtacha ob-havo sharoitining, issiqroq, namroq, quruq yoki boshqa jihatdan sezilarli darajada o’zgarishi bilan baholanadi. Hozirgi kundagi global isish iqlim o’zgarishlarining bir ko’rinishidir. XIX asrdan buyon shakllanib, jadal sur’atlar bilan jiddi o’zgarayotgan iqlim o’zgarishlarini endi biz tabiiy sabablar bilan bog’lay olmaymiz. Chunki, sanoat rivojlangan davrda, insoniyat omili yuksaklarga chiqish davrida bir necha yuz yillardan beri shakllanib keladigan iqlim o’zgarishlariga asosiy sabab sifatida insoniyatni ko’rsatamiz. Ko’mir, neft hamda boshqa qazilmalarning yonishi oqibatida chiqadigan antropogen chiqindilarning asosiy manbai hisoblanadi. Yana bir sabab, bu o’rmonlarni kesish, buning oqibatida insoniyat uchun karbonat angidrid gazini yutib kislorod chiqarib beradigan daraxtlar, o’simliklar va nabotot olamiga nisbatan shavqatsizlarcha munosabatda bo’lib, ularning qotiliga aylanish. Albatta, ushbu yuqoridagi holatlar ayanchli hamda achinarli holatlar, xuddi insoniyat o’zini-o’zi jarga qulatayotgandek. Global iqlim o’zgarishining oqibatlari Jahon Iqtisodiy Forumining 2021-yildagi global xavflar xisobotiga ko’ra, iqlim o’zgarishini yumshataolmaslik va unnga moslashaolmaslik, ommaviy qirg’in quroli hamda suv inqirozidan oldin, butun dunyo hamjamiyatlari oldida turgan asosiy va eng katta xavf hisoblanadi- deb e’tirof etilgan. Iqlim o’zgarishi global ekotizimni o’zgartirganda, u biz yashayotgan joydan tortib, ichadigan suvimiz hamda oladigan



nafasimizgacha ta'sir qiladi. Ushbu jarayonlarning nomutanosib ravishda turli guruhlar, ayollar, bolalar, rang-barang odamlar, mahalliy aholining iqtisodiy jihatdan cheklangan qismiga jiddiy ta'sir qilishi taxmin qilinmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, har yili atmosferaga 100 million tonnadan ortiq uglevodorod chiqariladi, shuning 74 % rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Olimlarning fikricha, o'rmon yong'inlari oqibatida atmosferaga chiqayotgan karbonad kislotasi sanoat chiqindilarining 50 % ga teng ekan. Havoga ko'tarilgan tutun atmosferaning yuqori qatlamida kuyindi zarralarini ko'paytiradi. Oqibatda, sayyoramizga Quyoshdan kelayotgan issiqlik energiyasi qaytadan koinotga yoyilish o'rniga, Yerning o'zida qolib, "bug'xona hodisasi"ni keltirib chiqaradi va bu jarayon jadallashib bormoqda. Jahon meteorologiya tashkiloti rahbari Mishel Jarroning fikricha, sayyoramizda o'rtacha harorat 7 darajaga ko'tarilsa, Yer yuzi hududining teng yarmi hayot uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Chunki ayrim unumdor yerlar cho'llanishga yuz tutsa, ayrimlari suv ostida qoladi.[2] Iqlim o'zgarishlarining oqibatlari yaqin bir oy ichida sodir bo'lgan bo'lgan Osiya mamlakatlarining aksariyatida yong'ingarchiliklar natijasida yuzaga kelgan muammolar, ularning oqibatida turli suv toshqinlari, iqlimning almashib qolgan holatlari, ya'ni doim issiq bo'ladigan mintaqalarda yong'ingarchiliklarning ko'paygani, yong'ingarchilik bo'ladigan mintaqalarda esa haddan ziyod havoning isib ketishi kabi holatlariga ijtimoiy tarmoqlar orqali deyarli har kuni guvoh bo'lib bormoqdamiz. Yoki misol tariqasida, joriy yilning 16-oktabr sanasida kuchli yo'ngingarchilik natijasida Gretsiyaning Krit

oroli suv ostida qolgani, buning natijasida ko'plab mahalliy aholining qurbon bo'lishi, fikrimizning yaqqol dalilidir. Yana bir misol ham joriy yil 30-sentabrda Amerika Qo'shma Shtatlarining Florida shtatiga kelgan Yen to'foni ham ko'plab odamlarning o'limiga sabab bo'lgan ayanchli hodisalardan biridir. Shuningdek, turli mintaqalarda qurg'oqchilik holatlari ham avj olayotgani quvonarli emas, albatta. Demak, iqlim o'zgarishi nima ekanligi va u qanday sodir bo'lishi, nimalar sabab bo'lishi hamda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi va olib kelganligi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'ldik. Endi esa, ushbu jarayonlarni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar, amalga oshirilgan hamda oshirilishi kerak bo'lgan ishlar, bu borada xalqaro doirada kelishib olish kerak bo'lgan masalalar hamda dunyo davlatlari o'rtasida o'zaro kelishib olingan konvensiyalar hamda xalqaro huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot berib o'tamiz. Yuqoridagi masalalarni hal etish uchun ko'plab mamlakatlar o'rtasida turli doirada iqlim masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlar, konvensiyalar, o'zaro kelishuvlar o'tkazilgan. Shulardan eng kattasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Iqlim o'zgarishlari to'g'risida" gi Hadli konvensiyasi hisoblanadi. Ushbu konvensiya 1992-yilning 9-may kuni Nyu-York shahrida imzolangan bo'lib, konvensiyaning tegishli qoidalariga muvofiq, atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasini barqarorlashtirishga erishishdir. Iqlim tizimiga xavfli antropogen ta'sirning oldini olish, bu darajaga ekotizimlarning tabiiy ravishda iqlim o'zgarishiga moslashishi uchun yetarli vaqt oralig'ida erishish kerakligi, bu oziq-ovqat ishlab chiqarishni buzmasdan va barqaror tarzda keyingi iqtisodiy



rivojlanishni ta'minlash kerakligi hamda ahdlashuvchi davlatlar iqlim tizimi va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tegishli ilmiy, texnologik, texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy axborotni, shuningdek, turli javob strategiyalarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini to'liq, ochiq va tezkor almashishga ko'maklashish va hamkorlik qilish kabi ishlar uchun kelishib olganlar. Shuningdek, bir-birini takrorlashni minimallashtirish zaruratini hisobga olgan holda

tadqiqotni aniqlash, o'tkazish, baholash va moliyalashtirish, ma'lumotlarni to'plash va tizimli kuzatishni maqsad qilgan xalqaro va hukumatlararo dasturlar va tarmoqlar yoki tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va zarur hollarda mustahkamlashga

harakat qilish kabi bir qator amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni o'zlarining ustuvor vazifalari qatoriga kiritishgan.[3] Yana bir shunday kelishuvlardan biri, o'tgan yaqin yil ichida qabul qilingan Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ortib borayotgan global tahdidlarning oldini olish maqsadida "Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash to'g'risida" gi Parij konvensiyasidir. Ushbu konvensiya 2015-yilning 12-dekabrida qabul qilingan bo'lib, usha yilning o'zida ushbu konvensiyaga 200 ga yaqin mamlakatlar qo'shilgan. Ushbu konvensiya 2016- yilning 4-noyabrida kuchga kirgan. Ushbu bitimning maqsadi sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o'rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo'yicha 2°S ga saqlab turish hamda haroratning 1,5°S gacha o'sishini cheklashga erishishdan iborat. 2050-yilga borib issiqxona gazlarining global ajratmalarini 40 — 70 foiz kamaytirish, 2100-yilgacha esa 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazish talab etiladi.

Bitimda rivojlangan mamlakatlarning taraqqiy etayotgan davlatlarga iqlim o'zgarishining oldini olish va unga moslashish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash majburiyati yuklatilgan. 2020 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlari hamda ustuvorliklarini e'tiborga olib, moliyaviy ko'makni 100 milliard AQSH dollariga yetkazishga qaror qilingan. Hozirgi vaqtda maxsus jamg'arma umumiy qiymati 1,5 milliard AQSH dollarilik 35 ta loyihani moliyalashtirmoqda. Ular orasida O'zbekiston hamda Tojikiston uchun Jahon banki bilan hamkorlikdagi "Orol dengizi havzasida iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oldini olish dasturi" loyihasini moliyalashtirish masalasi ham ko'rib chiqilmoqda (20 million AQSH dollariga teng grant).[4] Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 19-aprelda BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida Parij bitimini imzolagan, biroq hozirgi vaqtga qadar ushbu bitimni ratifikatsiya qilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2018-yil 25-sentyabrda o'tkazilgan navbatdagi majlisida bir qator muhim qonun hujjatlari ko'rib chiqildi. Ulardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida parlament quyi palatasiga kiritilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasidir. Majlisda qayd etilganidek, bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri, deb tan olmoqda. Darhaqiqat, XX asrga kelib, dunyo mamlakatlarining keskin industrial rivojlanishi, tabiat qonuniyatlariga bo'ysunmasdan, uning



resurslaridan oqilona foydalanmaslik natijasida atmosferaga behisob miqdorda issiqxona gazlari chiqarilishi iqlim o'zgarishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, jahonning turli nuqtalarida yilning to'rt faslida ham haroratning keskin o'zgarishiga, ba'zi yerlarda og'ir halokatli yog'ingarchiliklar, kuchli suv toshqinlari hamda bo'ron va to'fon kabi ofatlarga, aksincha olib qaraydigan bo'lsak, boshqa joylarda qurg'oqchilik, cho'llanish, yer degradatsiyasi, o'rmon yong'inlari va boshqa ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Butunjahon meteorologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kungacha global yillik o'rtacha havo harorati 1880-yildagi darajadan 1°C ga ortgan. O'zbekistonda xuddi shu davr uchun o'rtacha yillik havo harorati 1,6°S ga ko'tarilgan, ya'ni isish jadalligi global miqyosda kuzatilayotgan o'rtacha sur'atdan yuqori ekanligi qayd etilgan. Chunki, O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga ko'proq moyil bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi.[5] Yaqinda o'rganilgan ekspertlarning xulosasiga tayanadigan bo'lsak, iqlim o'zgarishlari ekotizimlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, respublikamizning Surxondaryo, Buxoro va Xorazm hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va yana boshqa hududlardagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga, yil davomida havo haroratining davomiy ko'tarilib borishiga sabab bo'lmoqda. Buning oqibati kelib chiqadigan hodisalar, aholi orasida xar hil kasalliklarning ko'payishi hamda boshqa tabiat hodisalarining ham, misol uchun, sellar, suv toshqinlarining tez-tez takrorlanib turishiga olib kelishi, albatta quvonarli holat emas. Parij konvensiyasi qabul qilinganidan ikki yil o'tib, ya'ni 2017-yil 1-iyulda yangi saylangan AQSH prezidenti

Donald Tramp mamlakatining ushbu konvensiyadan chiqqanini e'lon qildi. Uning fikriga ko'ra, global iqlim o'zgarishiga qarshi kurash talablari nafaqat AQSHda balki dunyoda millionlab ish o'rinlari va milliardlab dollarlarning yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Trampning bu qarori o'sha paytda boshqa ko'plab mamlakatlar tomonidan keskin tanqid qilindi. Tramp yangi cheklovlar 2025-yilga qadar AQSHda **2,7 million** ish o'rnini qisqartirishi, 2040-yilga borib mamlakat iqtisodiyoti uch trillion dollargacha zarar ko'rish haqidagi raqamlarni keltirgan. Vaholanki, AQSH atmosferani global iqlim o'zgarishining katalizatori hisoblangan karbonat angidrid gazi bilan yetakchilar qatorida turibdi. Hozirda zaharli moddalarni atmosferaga chiqarish bo'yicha Xitoy yetakchi bo'lsa-da, umumiy hisob-kitoblar bo'yicha aynan AQSh atmosferani issiqxona gazi bilan «to'yintirish»da eng ko'p «ishtirok etgan». AQShning Parij Konvensiyasidan chiqishiga ham ana shu: havoga karbonat angidrid chiqarishda dunyoda peshqadam bo'lgani ham sabab bo'ldi.[6] Endi esa, xalqaro ekologiya huquqining iqlim o'zgarishlari oqibatlarini bartaraf etishda tutgan o'rniga to'xtalsak, Hozirgi paytda atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish eng dolzarb muammodir. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish-xalqaro ekologiya huquqi bilan tartibga solinadi. Xalqaro ekologiya huquqi rivojlanib borayotgan xalqaro huquqning ancha keng institutlaridan biri bo'lib, keyinchalik huquq tizimining yagona bir tarmog'i bo'lishi mumkin. Xalqaro ekologiya huquqi hozirgi davrdagi xalqaro ekologik qonunchilikning rivojlanishi va amalga oshirilishi munosabati bilan rivojlanib bormoqda. Xalqaro ekologiya huquqi



xalqaro miqyosda ekologik qonunlarni va barcha xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni tartibga solib, xalqaro prinsiplarga mos holatda tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilishga hamda barcha tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga, dunyo xalqlariga sof, musaffo, boy tabiatni ta'minlashga qaratilgan huquq sohasi hisoblanadi.[7] Xalqaro ekologiya huquqining predmeti xalqaro ekologik munosabatlar, dunyo xalqlari, ya'ni inson va atrof-tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro chambarchas bog'liqlik hisoblanadi. Xalqaro ekologiya huquqining subyekti, millat va xalqlar, o'z mustaqilligiga ega bo'lgan barcha davlatlar, xalqaro tashkilot va birlashmalar, xalqaro ekologik munosabatlarga qatnashuvchi va hal etuvchi barcha yuridik hamda jismoniy shaxslar tan olinadi. Xalqaro ekologiya huquqining obyektini dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan, butun xalq, millat va elatning yashashi uchun hayot manbai, ya'ni yer, suv, havo (atmosfera) o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmon, barcha yer osti va yer usti boyliklari, butun tabiat ona zamin hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro ekologiya huquqining bir qator xususiyatlari ham mavjud:

- xalqaro ekologik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlaydi va tartibga soladi;
- mavjud xalqaro ekologik holat, ekologik xavfsizlik va muammolar xalqaro prinsiplar asosida ko'rib chiqiladi va hal etilishi ta'minlanadi;
- qabul qilingan barcha xalqaro ekologik-huquqiy normativ hujjatlar, bitta davlat emas, balki bir nechta davlatlar va xalqlar manfaatidan kelib chiqiladi;
- xalqaro miqyosda tuzilgan barcha ekologik-huquqiy normalar xalqaro prinsiplarga asosan amalga oshirilishi

davlatlar tomonidan ta'minlanadi va hokazo.[8] Ekologiya huquqida atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish tamoyilari xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan kelib chiqadi hamda xalqaro ekologiya huquqiga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur tamoyillarni qo'llashdan asosiy maqsad, tabiiy muhitni va uning boylik manbalarini saqlash hamda ulardan oqilona foydalanishdir. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish tamoyillari asosan BMT va uning atrof muhit bo'yicha o'tkazilgan Stokgolm konferensiyasi (1972), Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy hujjatida (Xelsinki, 1975) va Umumjahon tabiat xartiyasida hamda Rio-de-Janeyro konferensiyasi (1992) qarorlarida hamda yuqorida keltirilgan konvensiya va bitimlarda mustahkamlab qo'yilgan. Xalqaro ekologiya huquqining o'rnatilgan 7 ta tamoyillari bor. Ularning har biri o'ziga xos vazifalarni amalga oshirishda mamlakatlarga tegishli majburiyatlarni yuklaydi. Shu yerda savol tug'ilishi mumkin, nega aynan majburiy xarakterdagi majburiyat yuklaydi yoki tavsiyaviy emas, degan. Chunki, ekologiyaga oid muammolar hamda yuzaga keladigan xavflar u yoki bu davlatning majburiyati emas, bu qanaqadur shartnoma asosida yoki qabul qilingan qaysidur konvensiyalarga o'xshab, tavsiyaviy xarakterdagi majburiyat emas, bu majburiyat butun dunyo majburiyati, butun tirik jon borki, ekologiyani asrashga hamda unga nisbatan jiddiy salbiy harakat amalga oshirmaslikka majburdir. Shu o'rinda yuqorida aytilgan tamoyillarda biri bo'lgan xalqaro miqyosda ekologik axborotni erkin almashinish tamoyiliga to'xtalib o'tmoqchiman. Mazkur holat bo'yicha davlat atrof tabiiy muhit holatini



kuzatib borish xizmati tabiiy muhitda sodir bo'layotgan fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni, atmosfera havosi, tuproq, yer usti va yer osti suvlarining ifloslanish darajasini, ifloslanishning o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va aholini atrof tabiiy muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida joriy va shoshilinch axborotlar hamda bu muhit holatiga doir taxminlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan tamoyil hisoblanadi. Keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti natijasida keng yo'l ochilgan tabiat va iqlimga sun'iy ta'sir ustidan nazorat o'rnatish g'oyat qiyin bo'lib, bu yer atmosferasi uchun katta xavf solmoqda. Xususan, hozir yog'ingarchiliklar (yomg'ir yoki do'l)ni hosil qilish yoki uning oldini olish imkoniyati mavjud. Xuddi shuningdek, bo'ron va tayfunlarning yo'nalishi hamda kuchini o'zgartirish mumkin. Tabiat va iqlimga ta'sir ko'rsatish insonga buyuk farovonlik yoki juda katta zarar ham keltirishi mumkin. Masalan, AQShning Vyetnamdagi agressiyasi chog'ida Pentagon maxfiy ravishda «havo urushi» olib borib, kuchli yomg'irlarni sun'iy ravishda hosil qildi va yo'llar, damba va to'siqlarni yuvib yubordi. Kelgusida chindan ham urush olib borishning «apokaliptik» usullari paydo bo'lishi, bu esa yerdagi hayotning, quyosh ultrabinafsha nurlarining g'oyat xatarli ta'siridan saqlovchi azon qatlamini buzib yuborishi, katta hududlarda sun'iy suv bosishi yoki sun'iy qurg'oqchilik hosil qilishi mumkin. Bunday jiddiy xavfni his etgan rivojlangan davlatlar tashabbusi bilan 1977-yilda tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish vositalaridan harbiy yoki har qanday boshqa dushmanlik maqsadlarida foydalanishni taqiqlash to'g'risida

konvensiya qabul qilinishiga olib keldi. Unda qatnashuvchi davlatlar boshqa ishtirokchi davlatlarga vayronagarchilik, zarar yetkazish yoki dushmanlik maqsadlarida salbiy oqibatlariga olib keluvchi tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanishga intilmaslikka kelishib oldilar.[9] Albatta bu butun dunyo e'tiborini qaratadigan global muammo hisoblanadi, chunki uning oqibatlari judayam ayanchli holatlarga sabab bo'lishiga yillar davomida guvoh bo'lib kelmoqdamiz. BMT bosh kotibi Antonio Guterrishning Sharm al-Shayxda, ya'ni Misrda bo'lib o'tadigan BMT ning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidan oldingi fikriga ko'ra, "Har qanday iqlim jabhasida yagona yechim - bu birdamlikdagi qat'iy harakat"- deb aytgan edi. Albatta, issiqxona gazlari chiqiqndilarini kamaytirish, jamoalarga iqlim o'zgarishining muqarrar ta'siriga chidamligini oshirish va moslashishga yordam berishdan tortib, iqlim bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, iqlim harakatlarini moliyalashtirish va rivojlanayotgan mamlakatlardagi yo'qotishlar zararlarni birgalikda kurashib bartaraf etish maqsadga muvofiq deb xisoblayman. Respublikamiz hududida ham iqlim o'zgarishlariga doir bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular doirasida samarali ishlar ko'lami kengayib bormoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O'zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayorlangan "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlandi va ushbu strategiyani ilgari



surish va joriy etish bo'yicha Idoralararo kengash tuzildi. Ushbu strategiyaning harakatlar rejasiga muvofiq, har bir vazirlik va idoralarga iqlim o'zgarishini yumshatish yoki unga moslashish bo'yicha vazifalar yuklatildi.[10] Shuningdek, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi Respublikamiz hududida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish (quyosh va shamol elektr stansiyalarni qurish) uchun huquqiy va me'yoriy asos yaratdi. Yana bir ma'lumot, joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Respublikamizning Samarqand shahrida Shanhay Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi sammiti bo'lib, butun dunyo nigohiga tushgan ushbu sammit doirasida qabul qilingan qarorlar, kelishuvlar hamda hujjatlar avvalgi sammitlarga qaraganda anchagina keng doirada hamda keskin burilish yasagan sammit bo'ldi deb bimalol aytaolamiz. Sammit doirasida bevosita 44 ta hujjat qabul qilinib imzolandi. Deyarli barcha sohalarni qamrab olgan hamda strategik sherikchilik doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar bilan bir qatorda, albatta, davlat rahbarlari ekologik muammolar bilan bog'liq masalalarni ham keng muhokama qilishdilar va tegishli hujjatlar ham qabul qilindi. Sammit doirasida davlatlar milliy kordinatorlari kengashining yig'ilishida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining rasmiy vakili Yusuf Qobilov - "SHHT doirasida bu boradagi bayonot birinchi marta qabul qilinmoqda. Bu Tashkilotning mintaqaviy va global iqlim muammolarini shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirokchi bo'lish istagi va tayyorligini ko'rsatadi. Xususan, hujjatda

SHHTga a'zo davlatlarning ushbu sohadagi asosiy xalqaro-huquqiy mexanizmlari - BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi va Parij kelishuvi qoidalarini samarali amalga oshirish masalalariga umumiy yondashuvlari aks ettirilgan" - deb ta'kidladi.[11] O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dunyo hamjamiyati oldida turgan iqlim o'zgarishi, suv va tabiiy resurslar yetishmasligi singari dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratdi. To'g'risini aytganda, bugun yer yuzida atrof-muhit juda ifloslanib, ekologiya achinarli holatga kelib qolgani hech kimga sir emas. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ekologik tahdid va xatarlar ortib borayotgan bir paytda Orol dengizi ekologik fojeasi halokatli oqibatini bartaraf etish ustuvor vazifamiz ekanini ta'kidladi. Shu munosabat bilan SHHT huzurida siyosatchilar, jamoat arboblari, olimlar, ekspert-ekologlar, biznes vakillarini birlashtira oladigan Iqlim kengashini tuzish taklifini kiritdi. Ushbu mexanizm "yashil" taraqqiyot, cho'llanish va tuproq tanazzuliga qarshi kurashish, ekologik loyihalar, jumladan, Orolbo'yi uchun innovatsion yechim va moliyaviy mablag' jalb qilishga ko'maklashadi.[12] Zero, bugungi kunda hech bir davlat qanchalik iqtisodiy rivojlanishga ega bo'lmasin, yakka holda ekologik vaziyatni yaxshilash tugul, yumshatish imkoniga ham ega emas. Buning uchun, albatta, davlatlar ishni hamjihatlik bilan amalga oshirib, bir-birlari bilan hamkor bo'lib tashkil etishlari lozim. Bugungi kunda Konstitutsiyamizga fuqarolarning ekologik huquqini ta'minlash, atrof-muhitga xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning zararli ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-



sharoit yaratish, shaharsozlik hujjatlari loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi to'g'risidagi normalarni kiritish masalasi muhokama qilinayotgani, fuqarolarning ekologik huquqi va majburiyatini belgilash, ayniqsa, mansabdor shaxslarning tabiat himoyasi uchun mas'uliyatini keskin oshirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalasiga jiddiy e'tibor berilayotganidan darak bermoqda. Shuningdek, ekologiyaga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va ixchamlashtirish, ekologiya va tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid qonun va qonun osti huquqiy hujjatlarini o'zida birlashtirgan Ekologik kodeksni yaratish ustida jadal ish olib borilayotgani ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, yuqoridagilardan kelib shuni ayta olamizki, ekologik muammo – bu yer yuzida hozirgi kunda 8 milliard inson bo'lsa, ana shu 8 milliard insoning muammosidir. Ekologik muammo kimgadur kerak yoki kimgadur keraksiz narsa emas, har bir inson ushbu muammolarni bartaraf etishda uzining pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim, chunki hech kim o'zining kelajagiga befarq bo'lmasa kerak. Bu zaminda faqatgina biz yashab ketishimiz kerak emas, bu zaminni, havoni, iqlimni, tuproqni va boshqa tabiat in'omlarini asrab-avaylab, ulardan oqilona foydalanib, bizdan keying kelajak avlod uchun ham biz qay tarzda qabul qilib olgan bo'lsak, kerak bo'lsa undan ham yaxshiroq, undan ham foydaliroq qilib yetkazishimiz kerak, albatta. Bu ekologik muammolar faqatgina davlat rahbarlarining muammosi emas, har bir xalqning, millatning hamda elatning muammosi, chunki ekologik holatni shu axvolga kelishiga albatta

o'zimiz sababchimiz. Har birimiz qo'limizdan keganicha, hamjihat bo'lib, bir-birimizga ko'maklashib harakat qiladigan bo'lsak, albatta bu muammolar bartaraf etiladi. Mamlakatlar miqyosida qayta ishlash sanoatini sezilarli darajada o'rnini oshirish hamda zamonaviylashtirish, iqtisodiy sohani ushlab turgan sanoat korxonalari, issiqlik elektr stansiyalari va boshqa atmosferaga zararli gazlarni hamda moddalarni chiqaroyatgan tuzilmalarning chiqarayotgan zararli gazlarini kamaytirish yoki boshqacha tarzda faoliyatini yo'lga qo'yish istiqbollari ishlab chiqish, yoq'lg'i bilan harakatlanadigan transport vositalarining barchasini elektr energiyasi bilan harakatlantirish bosqichiga iloji boricha tezroq o'tish strategiyalarini ishlab chiqish, har bir davlat mamlakat hududida iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish uchun yetarlicha normativ hujjatlar ishlab chiqish hamda zamon talablariga mos ravishda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, aholini ekologik muhitni toza saqlashga qaratilgan turli-xil o'rnatilgan tartib-qoidalar bilan tanishtirish hamda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va boshqa ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni oldini olishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishlari kerak deb hisoblayman. Oddiy misol keltiraman, Qatar poytaxti Doha shahrida piyodalar yo'lakchasiga yoki belgilangan joyga chiqindi yoki boshqa biror keraksiz narsani tashlaganingiz uchun sizga 2000\$ jarima qo'llaydi, shuning uchun agar e'tibor bergan bo'lsangiz Dohaning ko'chalarida birorta ortiqcha narsa ko'rmaysiz. Bu degani, ekologik muammolarning oldini olishga qarshi kurashyapti, degani. Ekologiyani asrashga qaratilgan harakatlar, normativ hujjatlar ishlayapti, degani. Mening fikrimcha, mamlakatlar o'zlarining



ichki qonunlarining ekologiya bilan bog'liq qismlariga sezilarli darajada o'zgartirish kiritishi lozim. Agar o'zgartirish kiritganda ham u qonun o'z natijasini bermasa, kerak bo'lsa jinoiy jazo qo'llash bilan mustahkamlab qo'yish kerak deb

hisoblayman. Chunki bu yerda bir kishi haqida yoki bir necha kishilar haqida gap ketmayapti, bu yerda butun yer yuzidagi deyarli 8 milliard inson hayoti haqida ketyapti.

References:

1. <https://e-library.namdu.uz/>
2. <https://medium.com/>
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Iqlim o'zgarishlari to'g'risida" gi Hadli konvensiyasi
4. <https://xs.uz/>
5. "Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash to'g'risida" gi Parij konvensiyasidir.
6. <https://zarnews.uz/>
7. <https://library.samdu.uz/>
8. Ekologiya huquqi: Darslik / J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 235 b.
9. 1985-yilda qabul qilingan "Ozon qatlamini himoya qilish boyicha" Vena konvensiyasi.
10. 1987- yilda qabul qilingan "Ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar to'g'risida" gi Monreal protokoli.
11. <https://www.un.org/>
12. <https://kknews.uz/>
13. <https://aniq.uz/>
14. <https://lex.uz/>